QASHQADARYO VILOYATI SHAHRISABZ SHAHAR HOKIMINING QARORI

2022 - yil 4 - noyabr 158-4-209-Q/22 Shahrisabz shahar hokimligi

Shahrisabz shahridagi davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida 2022-2023-o‘quv yilida 6 yoshli bolalarni boshlang‘ich ta’limga jalb qilgan holda majburiy bir yillik tayyorlov guruhlarini tashkil etish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 13-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4312-sonli, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9-martdagi “Bolalarni boshlang‘ich ta’limga majburiy bir yillik tayyorlash tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 132-sonli va 2022-yil 9-fevraldagi “Bolalarni boshlang‘ich ta’limga majburiy bir yillik tayyorlash tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 9-martdagi 132-sonli qaroriga o‘zgartirishlar va qo‘shimcha kiritish to‘g‘risida”gi 66-sonli qarorlari, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirining 2022-yil 14-fevraldagi 21-sonli buyrug‘i hamda Qashqadaryo viloyati hokimining 2020-yil 18-martdagi HQ-263/03-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6-, 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 13-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4312-sonli, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9-martdagi “Bolalarni boshlang‘ich ta’limga majburiy bir yillik tayyorlash tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 132-sonli va 2022-yil 9-fevraldagi “Bolalarni boshlang‘ich ta’limga

majburiy bir yillik tayyorlash tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 9-martdagi 132-sonli qaroriga o‘zgartirishlar va qo‘shimcha kiritish to‘g‘risida”gi 66-sonli, Qashqadaryo viloyati hokimining 2020-yil 18-martdagi HQ-263/03-sonli qarorlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirining 2022 йил 14-fevraldagi 21-sonli buyrug‘i ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Shahrisabz shahar Maktabgacha ta’lim bo‘limining 2022 yil 9 sentabrdagi 01-01/345-sonli aloqa xati inobatga olinsin.

3. Shahrisabz shahridagi 17-davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti (keyingi o‘rinlarda DMTT deb yuritiladi) qoshida 1 ta va 29-DMTT qoshida 4 ta tashkil etilishi rejalashtirilgan majburiy ta’lim guruhlarining manzilli ro‘yxati ilova muvofiq tasdiqlansin.

4. Shahar sanitariya epidemiologik osoyishtalik markazi (M.Omanov), shahar favqulotda vaziyatlar bo‘limi (B.Qurbonov) Shahrisabz shahrida bolalarni boshlang‘ich ta’limga majburiy bepul bir yillik tayyorlash uchun DMTTlardan ajratilgan xonalarda sanitar-gigienik va yong‘in havfsizlik holatlarini me’yor talablari doirasida ta’minlash chorasini ko‘rsin.

5. Shahar hokimligi o‘rinbosari (A.Sultonov), shahar maktabgacha ta’lim bo‘limi (Sh.Islamov) bilan birgalikda DMTT hamda boshqa davlat tashkilotlari (maktab, mahalla binolari)da tayyorlov guruhlari uchun xonalarni tayyorlash, zarur bo‘lganda yangi binolar, xonalar qurish yoki mavjudlarini kapital ta’mirlash, guruhlarni malakali mutaxassis kadrlar bilan ta’minlash, suv va elektr energiyasi xajmini o‘lchash moslamalarini o‘rnatish choralarini ko‘rsin.

6. Shahar Moliya bo‘limi (S.Eshboboyev) tashkil etiladigan bolalarni boshlang‘ich ta’limga majburiy bepul bir yillik tayyorlov ta’lim guruhlarini moliyalashtirish hamda mablag‘ bilan ta’mnlash choralarini ko‘rsin.

7. Shahar maktabgacha ta’lim bo‘limi (Sh.Islamov)ga:

- Tayyorlov guruhida bola qamrovi ko‘payganda yangi guruhlar ochish, bola qamrovi kamayganda guruhlarni qisqartirish;
- Ushbu yo‘nalishga aloqador tashkilotlar bilan birgalikda tayyorlov guruhlaridagi ta’lim-tarbiya jarayoni sifatini nazorat qilish, ularga tashkiliy-huquqiy va metodik yordam ko‘rsatish;
- DMTT hamda boshqa davlat tashkilotlari (maktab, mahalla binolari)da

tashkil etiladigan tayyorlov guruhlari faoliyatini muntazam monitoring qilish vazifalari yuklatilsin

8. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish shahar hokimining o‘rinbosari A.Sultonov zimmasiga yuklatilsin.

Shahrisabz shahar hokimi  **A.Sulaymonov**

Shahrisabz shahar hokimining
2022 yil 4 noyabrdagi
158-4-209-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Bolalarni boshlang‘ich ta’limga bepul majburiy bir yillik tayyorlov guruhlari tashkil etilgan davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari va umumta’lim maktablari

RO‘YXATI

№	Majburiy bepul bir yillik tayyorlov guruhlari tashkil etiladigan manzil (MFY)	Majburiy bepul bir yillik tayyorlov guruhlari tashkil etiladigan joy nomi	Biriktirilgan MTT raqami	Jami		
				Ajratilgan xona soni	Jami guruhlar soni	Qamrab olinadigan bolalar soni
1.	“Ziyokor” MFY	17-DMTT	17-DMTT	1	1	25
2.	“Ma’rifat” MFY	29-DMTT	29-DMTT	4	4	100
	Jami			5	5	125

Shahrisabz shahar hokimining
2022 yil 4 noyabrdagi
158-4-209-Q/22-son qaroriga
2-ilova

SHAHRISABZ SHAHAR MAKTABGACHA TA'LIM BO'LIMI
SHAHRISABZ REGIONAL PRESCHOOL YEDUCATION DEPARTMENT

181302 Shahrisabz shahri Tutzor MFY I.Yo'li ko'chasi -108
Tel.: (55) 402-66-05 Web Sayt: shahrisabz. uz. yel. pochta:
shahrisabzshaharmtbdevon@.mail.ru

"9" Sentabr 2022 yil №01-01/345 sonli Shahrisabz shahar

Shahrisabz shahar hokimi
A.Sulaymonovga

Hurmatli Akrom Isomiddinovich!

Shahrisabz shahar maktabgacha ta'lim bo'limi Sizga shuni ma'lum qiladiki, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9-martdagi **"Bolalarni boshlang'ich ta'limga majburiy bir yillik tayyorlash tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"**gi №132-sonli, Vazirlar Mahkamasining **"Bolalarni boshlang'ich ta'limga majburiy bir yillik tayyorlash tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"** 2020-yil 9-martdagi 132-son qaroriga o'zgartirishlar va qo'shimcha kiritish to'g'risida qarori ijrosini ta'minlash yuzasidan qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirining 21-sonli buyrug'i ijrosini ta'minlash maqsadida Shahrisabz shahar hududidagi qamrab olinmagan 6 yoshli bolalarni boshlang'ich ta'limga majburiy bepul bir yillik tayyorlash uchun shahardagi №17 va №29 DMTTlardagi bo'sh turgan xonalarda jami 5 ta majburiy ta'lim bepul guruhlari tashkil etish, 125 nafar bolalarni qamrab olinish va ularga 5 nafar tarbiyachi, 5 nafar yordamchi tarbiyachi shtatlarini faoliyati yo'lga qo'yish ko'zda tutilgan.


Shu munosabat bilan, Shahrisabz shahar Maktabgacha ta'lim bo'limi Sizdan, shaharda bolalar qamrovini ko'tarish maqsadida 2022-2023-o'quv yilida 5 ta (xar bir guruxda 25 nafargacha) bolalarni boshlang'ich ta'limga majburiy bepul bir yillik tayyorlov guruhlarini tashkil etish uchun amaliy yordam berishingizni so'raydi.

Shahrisabz shahar Maktabgacha
ta'lim bo'limi mudiri **Sh.Islamov**

Bajardi: X.Sultonova

Shahrisabz shahar hokimining
2022 yil 4 noyabrdagi
158-4-209-Q/22-son qaroriga
3-ilova





HOKIM QARORI

Shahrisabz shahrida maktabgacha ta’lim bo‘limi tassarrufida faoliyat ko‘rsatayotgan davlat maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida 2022-2023-o‘quv yilida 6 yoshli bolalarni boshlang‘ich ta’limga majburiy bepul bir yillik tayyorlov guruhlarini tashkil etish to‘g‘risida

ID-69787

Shahrisabz shahridagi davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida 2022-2023-o‘quv yilida 6 yoshli bolalarni boshlang‘ich ta’limga jalb qilgan holda majburiy bir yillik tayyorlov guruhlarini tashkil etish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 13-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4312-sonli, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9-martdagi “Bolalarni boshlang‘ich ta’limga majburiy bir yillik tayyorlash tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 132-sonli va 2022-yil 9-fevraldagi “Bolalarni boshlang‘ich ta’limga majburiy bir yillik tayyorlash tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 9-martdagi 132-sonli qaroriga o‘zgartirishlar va qo‘shimcha kiritish to‘g‘risida”gi 66-sonli qarorlari, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirining 2022-yil 14-fevraldagi 21-sonli buyrug‘i hamda Qashqadaryo viloyati hokimining 2020-yil 18-martdagi HQ-263/03-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6-, 25-moddalariga asosan,

regulation.gov.uz
NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLAR LOYIHALARI MUHOKAMASI PORTALI
O‘zbek

Bolalarni boshlang‘ich ta’limga bepul majburiy bir yillik tayyorlov guruhlari tashkil etilgan davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari va umumta’lim maktablari

RO‘YXATI

№	Majburiy bepul bir yillik tayyorlov guruhlari tashkil etiladigan manzil (MFY)	Majburiy bepul bir yillik tayyorlov guruhlari tashkil etiladigan joy nomi	Biriktirilgan MTT raqami	Jami		
				Ajratilgan xona soni	Jami guruhlar soni	Qamrab olinadigan bolalar soni
1.	“Ziyokor” MFY	17-DMTT	17-DMTT	1	1	25
2.	“Ma’rifat” MFY	29-DMTT	29-DMTT	4	4	100
	Jami			5	5	125

***

regulation.gov.uz
NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLAR LOYIHALARI MUHOKAMASI PORTALI
O‘zbek

***

5
Taklif qoldirish uchun Avtorizatsiyadan o‘tishingiz lozim
Umumiy takliflar: 0
Takliflarni ko‘rsatish